

A NEW APPROACH TO PEDAGOGICAL CONTROL OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A TEACHER OF TECHNOLOGY

Doniyev Bahodir Boshmanovich

She is a teacher at the Samarkand Regional Center for
Retraining and Advanced Training of Public Educators

Annotation

The methods of studying, analysis and pedagogical control of the professional activity of a teacher of technology are considered.

Keywords: professional activity, analysis, pedagogical control, self-observation, study of intellectual qualities of the teacher, professional skills and qualifications.

Texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyatini pedagogik nazorat qilish tizimining boshqa tizimlardan ajralib turadigan xususiyati, uning muhim tarkibiy qismlarining o'zaro mustahkam aloqasi tufayli vujudga keladigan bir butunligi va yaxlitligidadir. Ushbu nuqtai nazardan texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyatini pedagogik nazorat qilish muammosi ham ma'lum maqsadlarga qaratilgan, bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan yaxlit tizim sifatida qaralishi mumkin.

1. Texnologiya fani o'qituvchisining faoliyatini nazorat qilish ishiga qanchalik to'g'ri, ob'ektiv yondashilsa, maktabdagi boshqa fan o'qituvchilarining bolalarga ta'lim-tarbiya berish faoliyatini nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan ko'plab vazifalarni hal qilish ham shunchalik oson kechadi.

2. Texnologiya fani o'qituvchisining faoliyatini nazorat qilish maktab, xalq ta'limi organlari, jamoatchilik oldida turgan ko'p qirrali faoliyat bo'lib, u texnologiya ta'limi o'qituvchilarining fan uslubiy birlashmasi, maktab rahbarlari va maxsus nazoratchi xodimlar tomonidan hamda o'z-o'zini kuzatish orqali amalga oshiriladi. Ularning vazifasi va ish mazmuni ham bir-birlari bilan mustahkam bog'langan va umumiy funksiyani bajarishga mo'ljallangan tizimlar sifatida qaralishi lozim.

3. Texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyatini pedagogik nazorat qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich – texnologiya ta'limi bo'yicha mashg'ulotlarning o'qituvchi tomonidan to'g'ri rejalashtirilganligini aniqlash hamda mazkur fan bo'yicha yaratilgan ishlanma va tavsiyalar bilan tanishish.

2-bosqich – o'qituvchilar shaxsiy fazilatlarining shakllanganlik darajasini aniqlash: Texnologiya fani o'qituvchisining mehnatsevarlik va kasbiy sifatlarini namoyon qilish; pedagogning aqliy-intellektual xususiyatlarini o'rganish, kasbiy ko'nikma va malakalarning rivojlanganlik darajalarini aniqlash.

3-bosqich - nazorat natijalarini tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalash va baholash hamda o'qituvchining pedagogik mahorati darajalarini aniqlash kabi qismlardan tashkil topgan.

4. Pedagogik xodimlarning kasbiy malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayoni ko'p qirrali tizim bo'lib, u jamiyat tomonidan o'qituvchiga yuklatilgan barcha vazifalarni bajarish uchun uning oliy o'quv yurtida egallagan bilim, ko'nikma, malakalarini to'ldirishga va rivojlantirishga, o'qituvchining o'z ustida mustaqil ishlashini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu umumiy tizimda texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyatini pedagogik nazorat qilishni alohida o'rganish lozim bo'ladi.

5. Texnologiya fani o'qituvchisining maktabda pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan pedagogik-psixologik, ilmiy, texnikaviy-texnologik, bilim, ko'nikma va malakalarni, ishlab chiqarish sohalarini mukammal egallashi zarur. Tizimli yondashuv o'quv fanlari turkumlarining har birini alohida tizim sifatida o'rganish orqali texnologiya fani o'qituvchisining

kasbiy tayyorgarligi, zamonaviy ishlab chiqarish, yangi texnika va ilg'or texnologiyalar bo'yicha bilimlarini hamda ularda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkoniyatlarini namoyon qilishga sharoit yaratadi.

Shu boisdan har qanday pedagogik tizim quyidagilarni: nazorat maqsadi, o'quv va ilmiy axborot, pedagogik muloqot vositalari, tekshiriluvchi va nazorat qiluvchilarni o'z ichiga olishini ta'kidlash zarur.

Texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyatini pedagogik nazorat qilishni yaxlit tizim sifatida o'rganish va tahlil qilish uchun uning ichki aloqalari va qismlari quyidagicha keltirilgan.

Texnologiya fani o'qituvchisining faoliyatini pedagogik nazorat qilish tizimining namoyon qilingan 50 dan ortiq tarkibiy qismlari keltirilgan. Unda mazkur qismlarning har biri «o'quv elementi» (O'E) deb nomlangan.

O'quv elementi (O'E) deganda texnologiya fani o'qituvchisining nazorat qilinishi zarur bo'lgan pedagogik, psixologik, ilmiy-uslubiy va amaliy faoliyatidagi ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlarning tarkibiy qismlari tushuniladi.

Mazkur murakkab vazifani yechish yo'llaridan biri-bu nazorat qilinadigan elementlarni yuksak darajada aniq ifodalash bo'lib, ular muayyan o'lchov me'yoriga egadir. Texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyatini pedagogik nazorat qilishni O'E.1-O'E.50 orqali amalga oshirishda nazorat qilinadigan tushunchalarning aniqligiga erishishga bo'lgan talablarni oshirish, ya'ni nazorat qilish jarayoni O'E larini, o'z navbatida yana yangi o'quv elementchalarga ajratish, tabiiy ravishda 50 ta nomdagi o'quv elementlarining sonining yanada oshishiga olib kelishni ta'kidlash lozim.

Texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyatini pedagogik nazorat qilish, uning ko'p qirrali, murakkab uzluksiz faoliyatida vujudga keladigan turli-tuman muammolarni izchil ravishda hal etib borish uchun undan o'z ustida muntazam ravishda ishlashni, kasbiy-pedagogik mahoratini tinmay takomillashtirib borishni hamda bilim, ko'nikma va pedagogik mahorat, tashkilotchilik qobiliyati hamda yuqori darajali malaka talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika (nopedgogik oliy ta'lim muassasalari uchun). 2013 y. - TDPU. 15,25 b.t.
2. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2013 y. 8 b.t.
3. SHaripov SH.S., Vorobyov A.I., Muslimov N.A., Ismoilova M. Kasb ta'limi pedagogikasi. - Toshkent., 2005. - 58 b.